



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbasovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startup ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	

FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI PROFESSIONAL RIVOJLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-FAOLIYATLI MODELI

Gafurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli, individual rivojlanish xaritasi, funksional savodxonlikni refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish vazifalari, platformalar bilan ishlash masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchilarini professional rivojlantirish, strukturaviy-faoliyatli model, individual rivojlanish xaritasi, refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo'qitish ishlanmalari, platformalar.

Abstract: This article examines the structural-activity model of professional development for future primary education teachers based on functional literacy, the individual development map, tasks for creating a diary for reflective analysis of functional literacy and micro-learning developments, and issues of working with platforms.

Key words: functional literacy, primary education, professional development of teachers, structural-activity model, individual development map, reflexive analysis diary, micro-learning developments, platforms.

Аннотация: В данной статье рассматриваются структурно-деятельностная модель профессионального развития будущих учителей начального образования на основе функциональной грамотности, программа "Карта индивидуального развития", задачи создания дневника рефлексивного анализа функциональной грамотности и разработок микрообучения, а также вопросы работы с платформами.

Ключевые слова: функциональная грамотность, начальное образование, профессиональное развитие учителей, структурно-деятельностная модель, карта индивидуального развития, дневник рефлексивного анализа, разработки микрообучения, платформы.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini kompetentli yondashuv asosida metodik faoliyatga tayyorlashni modellashtirish, malaka, faoliyat, kompetentsiya va kompetentlikning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi funksional savodxonlik va kompetentli yondashuvlar orqali metodik tayyorgarlik mazmunini loyihalash, amalga oshirish va tahliliy komponentlar uzviyiligidan ishlab chiqish, talabalarining kasbiy kompetentsiyalarini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini mobil ilova va dasturiy ishlanmalar ishlab chiqish asosida takomillashtirish, talabalardagi metodik faoliyatga tayyorgarligining rivojlanganlik darajasini aniqlashning motivatsion, aksiologik, metodik faoliyatli, ijodiy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda kasbiy pedagogik faoliyatning kognitiv, innovatsion, loyihalash, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli, individual rivojlanish xaritasi, funksional savodxonlikni refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish darajalarini puxta egallashi uchun barcha didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarblik kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini oshirish, kasbiy pedagogik kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Jumladan, N.A. Muslimov tomonidan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslariga doir masalalar keng o'rganilgan.

M. Maxmutov, V. Okon, R. Ibragimovlar esa ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotchi D.E. Qarshieva klaster vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslarini maktab malakaviy amaliyoti misolida o'rganib chiqqan. Unda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini amaliyot bilan integratsiyalash, kompetensiyaga asoslangan malakaviy amaliyot modeli va pedagogik shart-sharoitlar asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli tahlil, modellashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik interpretatsiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish hamda professional rivojlanishiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Ularning ilmiy yondashuvlari qiyosiy-taqqoslash usuli asosida tahlil qilinib, mavjud ilmiy qarashlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi va funksional savodxonlik bilan integratsiyasi o'rganildi. Model-lashtirish usuli yordamida funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli ishlab chiqildi hamda uning asosiy komponentlari: individual rivojlanish xaritasi, refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo'qitish ishlanmalari va raqamli platformalar bilan ishlash elementlari tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida tahlil qilingan ilmiy manbalar, pedagogik yondashuvlar va ishlab chiqilgan modelning nazariy asoslari o'zaro solishtirildi hamda ularning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati baholandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish, taklif etilgan strukturaviy-faoliyatli modelning mazmunini asoslash hamda uning amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z ustida ishlashi, ta'lim jarayonini zamonaviy uslubda tashkil etishi, turli dars loyihalarini ishlab chiqishi zarur. Bundan tashqari, funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo'lishi, faoliyatining turli jihatlarni tahlil qilish orqali professional rivojlanishning strukturaviy modelini yaratishi muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy bilimlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda raqamli savodxonligini oshirishi, o'zini o'zi nazorat qilishi, ya'ni "o'sish nuqtalari"ni aniqlay bilishi va rivojlanish vektorlarini belgilab borishi zarur. Chunki pedagogik faoliyat va uning rivojlanish yo'nalishlari har qanday ijtimoiy munosabatlar sub'ekti kabi kasbiy faoliyat vazifalarini loyihalash natijasida shakllanadigan kompleks tuzilmalardan iborat. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi darslarni tashkil etishga tayyorgarlik jarayonida o'quvchilarning darsga e'tiborini jalb qilish, qiziqtirish uchun metodik savodxonlik, ijtimoiy faol fuqarolik, kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lishi, ko'plab axborot manbalari bilan tanishishi, ularni dars jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Elektron doskalar, smartfonlar va o'yinli planshetlar – ularning barchasi o'quvchining o'quv predmetlari sifatida foydalanishi, mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlar olishi, individual topshiriqlarni bajarish imkoniyatlaridan foydalanishiga xizmat qiladi. O'quvchi mustaqil topshiriqlarni bajara olishi natijasida unda o'zaro bir-biriga bog'liq holda fanga doir zaruriy bilimlarni mustahkamlash, shaxs sifatida rivojlanish, atrof-muhit, oila va jamoaga hurmat, moslashuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlari, ishonch, uyushqoqlik va do'stona munosabat, jismoniy va ruhiy salomatlik, ijobiy fikrlash kabi sifatlar rivojlanib boradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli bevosita ta'lim jarayonida pedagogik vazifani hal qilishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy modeli pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion metod va usullarni qo'llay olish, refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish, o'zini o'zi rivojlantiruvchi harakat dasturlarini yaratish kabi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi metodlar va vositalarning texnologik blokini tashkil etadi. 2-sinf ona tili darsida "Sifat" mavzusini 15 daqiqalik mikroo'qitish shaklida o'tishga oid mikroo'qitish ishlanmasi quyidagicha tuzilishi mumkin (1-jadval).



1-jadval: Refleksiv tahlil qilish kundaligi namunasi

No	Refleksiya yo'nalishi	Namuna
1	Dars maqsadi	O'quvchilarda sifat so'z turkumi haqida dastlabki tushunchani shakllantirish.
2	Nima muvaffaqiyatli bo'ldi?	Rasmlar va didaktik kartochkalar orqali o'quvchilar darsga faol jalb qilindi. Savollarga ko'pchilik to'g'ri javob berdi.
3	Qanday qiyinchiliklar kuzatildi?	Vaqtini to'g'ri taqsimlay olmadim, yakuniy mustahkamlash uchun vaqt yetmadi.
4	Qanday xatolarimni aniqladim?	Savollarni barcha o'quvchilarga teng taqsimlamadim, faqat faol o'quvchilar bilan ishladim.
5	Kelgusida nimani o'zgartiraman?	Vaqt rejasini aniq tuzaman, differensial topshiriqlardan foydalanaman va barcha o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilaman.

2. Mikroo'qitish ishlanmasi tayyorlash

Fan: Matematika

Sinf: 1-sinf

Mavzu: 10 ichida qo'shish.

Davomiyligi: 15 daqiqa.

Maqsad: O'quvchilarni 10 ichida qo'shish usullari bilan tanishtirish, hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va faollikni rag'batlantirish.

Dars bosqichlari:

Kirish (2 daqiqa). Salomlashish. Bugun sonlarni qanday qo'shishni o'rganamiz.

Asosiy qism (10 daqiqa). Rangli kubiklar yordamida $4 + 3$ misolini ko'rsatish. Interfaol savol-javob. Juftlikda 5 ta misolni bajarish.

Yakun (3 daqiqa). "Bugun nimani o'rgandik?" savoli. O'z-o'zini baholash.

Baholash mezonlari: misollarni to'g'ri yechishi, darsdagi faolligi, savollarga javob berishi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati sifatida bir-birini to'ldiradigan quyidagi natijalarga olib keladi:

- mikroo'qitish bo'lajak o'qituvchiga qisqa vaqt ichida darsni rejalashtirish, o'qitish metodlarini qo'llash va pedagogik vaziyatlarni boshqarish tajribasini beradi.
- refleksiv tahlil kundaligi esa o'tkazilgan mikrodarsni tahlil qilish, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi.

Natijada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida pedagogik refleksiya, metodik kompetensiya, darsni loyihalash, muloqot madaniyati va kasbiy o'zini rivojlantirish ko'nikmalari izchil shakllanadi.

Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish, individual rivojlanish xaritasi tuzish kabi funksional savodxonlikni platformalar bilan ishlash masalalari bilan izchil mustahkamlanib boradi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan u yoki bu kasbiy qiyinchiliklar va tegishli ta'lim kutilmalari kasbiy rivojlanish dasturlarini o'zlashtirish orqali qiyinchiliklarni bartaraf etish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini qo'shimcha ta'lim berish vositalari va ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishida, o'qituvchilarning funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo'lish imkoniyatlarini har tomonlama o'rganish, o'z ehtiyojlariga muvofiqlik darajasini aniqlashdan iborat.

Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga o'zini o'zi rivojlantiruvchi harakat dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday dasturlar quyidagicha mazmunda va shaklda tuzilishi mumkin bo'lib, bu dasturning maqsadi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, refleksiv tafakkuri, pedagogik mahorati hamda innovatsion faoliyatga tayyorligini izchil rivojlantirishdan iboratdir (2-jadval).



2-jadval: Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'zini o'zi rivojlantiruvchi harakat dasturlari

No	Rivojlanish yo'nalishi	Amalga oshiriladigan ishlar	Muddati	Kutilayotgan natija
1	Kasbiy bilimlarni oshirish	Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarni muntazam o'qish	Har hafta	Nazariy bilimlar boyiydi, ilmiy dunyoqarash kengayadi.
2	Metodik mahoratni rivojlantirish	Har oy kamida 2 ta mikroo'qitish mashg'ulotini tayyorlash va o'tkazish	Har oy	Darsni loyihalash va tashkil etish ko'nikmalari rivojlanadi.
3	Refleksiv kompetensiyani shakllantirish	Har bir amaliy mashg'ulot yoki darsdan so'ng refleksiv kundalik yuritish	Doimiy	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish odati shakllanadi.
4	Raqamli kompetensiyani rivojlantirish	Zamonaviy ta'lim platformalari va raqamli vositalardan foydalanishni o'rganish	Haftasiga 2 soat	AKTdan samarali foydalanish ko'nikmasi rivojlanadi.
5	Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish	Seminar, trening va guruhli muhokamalarda faol ishtirok etish	Har oy	Pedagogik muloqot madaniyati rivojlanadi.
6	Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati	Ilmiy maqolalar o'qish, tezis yoki maqola tayyorlash	Har semestr	Tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi.
7	Shaxsiy rivojlanish	Vaqtni boshqarish, stressni boshqarish va nutq madaniyati ustida ishlash	Doimiy	Kasbiy o'zini boshqarish ko'nikmalari shakllanadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini qo'shimcha ta'lim berish vositalari va ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishida o'qituvchilarning funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo'lish imkoniyatlarini har tomonlama o'rganish, o'z ehtiyojlariga muvofiqlik darajasini aniqlash dasturlarining imkoniyatlari belgilandi. Muhim vazifalar sifatida zamonaviy sharoitlarda pedagogik faoliyat resurslariga ega bo'lish, funksional savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturlarini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash belgilab olindi.

Bunda funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning samaradorligi va natijadorligini boshqarish jarayoni, kasbiy rivojlanishi masalalarini o'rganish doirasida elektron platformalar yaratishni nazarda tutadi. Bu platformada ekspert tadqiqotchi, baholovchi, test o'tkazuvchi, sifat va samaradorlikni baholash, refleksiv tahlil, mikroo'qitish ishlanmalarini tayyorlash, o'zini o'zi rivojlantiruvchi dasturlar ustida ishlashni nazorat qiluvchi hamda monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bunda jarayonning har bir sub'ekti kasbiy-pedagogik rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirish dasturining ishtirokchisi sifatida, nazorat qiluvchi metodist-o'qituvchi qatnashishi mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlil natijalari funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, ushbu vositalar o'quv-uslubiy faoliyatni tashkil etish, ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quv materiallarini yaratish hamda kasbiy refleksiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot davomida xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv-baholash kabi tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

Strukturaviy-faoliyatli model asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida refleksiv fikrlash va o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Buning natijasida kognitiv va metodik kompetensiyalar rivojlanadi, uzluksiz kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga barqaror motivatsiya shakllanadi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida funksional savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 90 bet.
2. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 2017.
3. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 2010.

4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81 b.
5. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022.
6. Ефремова Н. Ф. Организация оценивания компетенций студентов, приступающих к освоению основных образовательных программ вузов. Рекомендации для вузов, приступающих к переходу на компетентностное обучение студентов. М.: Исследовательский центр проблем качества. Barrett, H. C. (2007). Researching electronic portfolios and learner engagement: The REFLECT initiative. Journal of Adolescent & Adult Literacy, 50(6), 436–449. <https://doi.org/10.1598/JAAL.50.6.2>
7. Qarshieva D. E. Klaster vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari (maktab malakaviy amaliyoti misolida) (PhD dissertatsiyasi). 2025-yil.
8. Darling-Hammond, L., Burns, D., Campbell, C., Goodwin, A. L., Hammerness, K., Low, E. L., McIntyre, A., Sato, M., & Zeichner, K. (2017). Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. Jossey-Bass.
9. OECD. (2019). OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/df80bc12-en>
10. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
11. Рысбаева Г., Сихимбаева С., Петренко Т., Караева А. Профессиональная компетентность учителя начальных классов новой формации // Международный журнал экспериментального образования. 2015. № 11–4. С. 522–524. URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=8628> (дата обращения: 17.09.2025).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.